Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, sog‘lom turmush tarzining etnosotsial va antropopsixologik jihatlarini ijtimoiy-falsafiy doirada tahlil qilish inson salomatligi va hayotiy faoliyati faqat biologik jarayon bo‘lmay, balki milliy-madaniy ildizlar hamda ichki ruhiy holatlarning murakkab sintezi ekanini ko‘rsatadi. Etnosotsial omillar asriy qadriyat hamda urf-odatlar orqali jamoaviy salomatlik poydevorini shakllantirsa, antropopsixologik xususiyatlar shaxsning ruhiy barqarorligi va o‘z sog‘lig‘iga bo‘lgan mas’uliyatini belgilaydi. Ushbu milliy-madaniy tajriba hamda individual psixofizik imkoniyatlarning mutanosibligi zamonaviy o‘zgarishlar davrida milliy genofondni asrash va komil insonni voyaga yetkazishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2021, 416-bet.

(2). Муҳиддинов А. Тиббий маданият фалсафаси. Тошкент, Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2009, 12-бет.

(3). Ўзбекистонда биринчи марта жигар плантацияси муваффақиятли ўтказилди. “Халқ сўзи,” 25 февраль 2018, 1-бет.

(4). Yuldashev S.S. Zamonaviylik va inson salomatligi muhofazasi: ijtimoiy tahlil. Ilmiy risola, Toshkent, “Akademnashr”, 2021, 83-bet.

(5). Alimov X.R. Milliy genofondni muhofaza qilishda sog‘lom turmush tarzining o‘rni. Monografiya, Toshkent, “Tafakkur”, 2022, 145-bet.

(6). Umarov B.M. Yoshlar psixologiyasi va sog‘lom hayot tarzi ko‘nikmalari. Ilmiy to‘plam, Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2023, 120-bet.

Jo‘rayev Ahmad Muhammadiyevich (Vatan universiteti dotsenti, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri; ORCID - 0009-0004-7341-0876, juraev.1982@mail.ru)

TASAVVUF TA’LIMOTIDA BAG‘RIKENGLIK, INSONPARVARLIK VA DINLARARO MULOQOTNING FALSAFIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada tasavvuf ta’limotida shakllangan bag‘rikenglik, insonparvarlik, mehr-oqibat va dinlararo totuvlik g‘oyalarining falsafiy mazmuni tahlil qilindi. Tasavvufning insonning ichki dunyosini poklash, nafsni tarbiyalash va ruhiy kamolotga erishish haqidagi qarashlari uning boshqa insonlarga nisbatan hurmat, hamjihatlik va bag‘rikenglik munosabatlarini shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berildi. Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Bahouddin Naqshband va Alisher Navoiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, tasavvufda insonning diniy, milliy yoki ijtimoiy mansubligidan ko‘ra uning axloqiy-ma’naviy fazilatlariga ustuvor ahamiyat berilishi ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalari tasavvufiy qadriyatlarning zamonaviy bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirishda ma’naviy-axloqiy resurs sifatida foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *tasavvuf, bag‘rikenglik, insonparvarlik, dinlararo muloqot, ma’naviy kamolot, komil inson, muhabbat, axloq.*

ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ИДЕЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ, ГУМАНИЗМА, МИЛОСЕРДИЯ И МЕЖРЕЛИГИОЗНОГО СОГЛАСИЯ

Аннотация. *В статье анализируется философское содержание идей толерантности, гуманизма, милосердия и межрелигиозного согласия, сформировавшихся в рамках суфийского учения. Обосновывается положение о том, что суфийское понимание очищения внутреннего мира человека, воспитания его духовных качеств и достижения духовного совершенства способствует формированию уважительного, солидарного и толерантного отношения к другим людям. Посредством сравнительного анализа взглядов Ахмада Яссави, Джалаладдина Руми, Бахауддина Накшбанда и Алишера Навои показано, что в суфийской традиции приоритетное значение придаётся нравственно-духовным качествам человека, а не его религиозной, национальной или социальной принадлежности. Результаты исследования демонстрируют возможности использования суфийских ценностей в качестве духовно-нравственного ресурса формирования современной культуры толерантности.*

Ключевые слова: *суфизм, толерантность, гуманизм, межрелигиозный диалог, духовное совершенствование, совершенный человек, любовь, нравственность.*

PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE IDEAS OF TOLERANCE, HUMANISM, MERCY, AND INTERRELIGIOUS HARMONY

Annotation. *The article analyzes the philosophical content of the ideas of tolerance, humanism, compassion, and interreligious harmony developed within the Sufi tradition. It substantiates the view that*

the Sufi understanding of purifying the inner self, cultivating spiritual qualities, and attaining spiritual perfection contributes to the formation of respectful, harmonious, and tolerant attitudes toward others. Through a comparative analysis of the views of Ahmad Yasawi, Jalal al-Din Rumi, Baha al-Din Naqshband, and Alisher Navoi, the study demonstrates that the Sufi tradition places greater emphasis on a person's moral and spiritual qualities than on their religious, national, or social affiliation. The findings highlight the potential of Sufi values as a spiritual and ethical resource for fostering a contemporary culture of tolerance.

Keywords: *Sufism, tolerance, humanism, interreligious dialogue, spiritual perfection, the Perfect Human, love, morality.*

Kirish (Введение/Introduction). Bugungi globallashuv sharoitida turli din, madaniyat, millat va dunyoqarash vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning konstruktiv shakllarini rivojlantirish muhim ijtimoiy-falsafiy vazifalardan biridir. Jamiyatdagi diniy va madaniy xilma-xillik o'zaro hurmat, muloqot va hamkorlik asosida tashkil etilgandagina ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikka xizmat qiladi. UNESCO ham madaniyatlararo muloqotni turli guruhlar o'rtasida ishonchni mustahkamlash, ijtimoiy birdamlikni rivojlantirish va nizolarning oldini olishning muhim vositalaridan biri sifatida baholaydi. Shu nuqtayi nazardan, Sharq tafakkuri tarixida insonparvarlik va bag'rikenglik g'oyalarini rivojlantirgan tasavvufiy-falsafiy meros alohida ahamiyatga ega. Tasavvuf insonning tashqi ko'rinishi, ijtimoiy mavqeyi yoki mansubligidan ko'ra uning qalbi, axloqi va ma'naviy holatiga e'tibor qaratadi. Insonning o'z nafsini tarbiyalashi, qalbini poklashi va boshqalarga yaxshilik qilishga intilishi komil inson shakllanishining asosiy shartlari sifatida talqin qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (Materials and methods). Tasavvuf ta'limotida bag'rikenglik, insonparvarlik va dinlararo muloqot masalalarini o'rganishda Sharq va G'arb olimlarining tadqiqotlari muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda tasavvufning nazariy asoslarini yorituvchi tadqiqotlar, tasavvuf tariqatlari tarixiga oid asarlar hamda mutasavviflarning bevosita ma'naviy-falsafiy merosini tahlil qiluvchi manbalarga ajratish mumkin. G'arb tasavvufshunosligida William C.Chittickning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega [1]. Olim tasavvufni islomiy tafakkurning ichki va ma'naviy o'lchami sifatida tahlil qilib, insonning ruhiy kamoloti, muhabbat, ilohiy haqiqatni anglash va ma'naviy tajriba masalalariga e'tibor qaratadi. Chittick tasavvufni insonning ichki dunyosini anglash, ruhiy kamolotga erishish va ilohiy haqiqatni idrok etishga yo'naltirilgan ma'naviy yo'l sifatida talqin qiladi [1;63-b.]. Bu yondashuv bag'rikenglikni faqat tashqi ijtimoiy munosabat emas, balki shaxsning ma'naviy yetukligi bilan bog'liq hodisa sifatida tadqiq etish imkonini beradi.

Henry Corbinning "Yolg'iz Zot bilan yolg'iz: Ibn Arabiy tasavvufidagi ijodiy xayolot" asari esa tasavvufning falsafiy-metafizik jihatlarini, xususan, Ibn Arabiy tafakkuridagi inson, ruhiy tajriba va ilohiy haqiqat munosabatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan [2]. Corbinning konsepsiyasida insonning ma'naviy olami va uning ilohiy haqiqatni idrok etish imkoniyatlari markaziy o'rin tutadi. "Tasavvur – g'ayrihissiy-ilohiy va hissiy olam bir makonda "tushadigan", ya'ni o'zaro uchrashadigan maydondir" [2;216-b.]. Bu yondashuv tasavvufiy insonparvarlikning falsafiy mohiyatini, ya'ni, insonni faqat biologik yoki ijtimoiy mavjudot emas, balki ma'naviy mavjudlik sifatida anglash masalasini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

J.Spencer Triminghamning "Islomdagi tasavvuf tariqatlari" asari tasavvuf tariqatlarining shakllanishi, rivojlanishi va ijtimoiy hayotdagi o'rnini o'rganishda fundamental tadqiqotlardan biri hisoblanadi [3]. "Men *so'fiy* atamasini keng ma'noda qo'llayman: uni Xudoni bevosita idrok etish mumkinligiga ishongan va bunga erishish uchun o'zini tegishli ruhiy holatga keltirishga intiluvchi har qanday kishiga nisbatan ishlataman" [3;17-b.]. Muallif turli tariqatlarning tarixiy taraqqiyoti, tashkiliy tuzilishi va musulmon jamiyatlaridagi faoliyatini tahlil qiladi. Mazkur asar Naqshbandiya, Qodiriya, Chishtiya va boshqa tariqatlarning ijtimoiy-ma'naviy xususiyatlarini qiyosiy o'rganish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tasavvufning insonparvarlik va bag'rikenglik jihatlarini o'rganishda Jaloliddin Rumiy merosi ham alohida ahamiyatga ega [4]. Jaloliddin Rumiy asarlarida insonlar o'rtasidagi tashqi farqlardan ko'ra ularni birlashtiruvchi ma'naviy mohiyat, muhabbat va o'zaro hurmat g'oyalari ustuvorlik qiladi. Jaloliddin Rumiy insonlar o'rtasidagi tashqi farqlardan ko'ra ularni birlashtiruvchi ma'naviy mohiyatga e'tibor qaratadi. Uning "Chiroqlar turlicha, ammo Nur bir; u narigi olamdan keladi", deya, tashqi shakllardagi xilma-xillik ortida yagona ma'naviy haqiqat mavjudligini ta'kidlaydi [4;166-b.]. Shu jihatdan, uning falsafiy qarashlari diniy va madaniy xilma-xillik sharoitida insonlar o'rtasidagi muloqotning ma'naviy asoslarini tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi. Rumiyning bag'rikenglik haqidagi qarashlari zamonaviy tadqiqotlarda ham diniy ta'qib va murosasizlik muammolari bilan bog'liq holda o'rganilgan. Shuningdek, tasavvufiy bag'ri-

kenglikni zamonaviy ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganishda dinlararo muloqot va madaniyatlararo hamkorlikka oid tadqiqotlar ham muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda diniy bag‘rikenglik faqat turli e’tiqod vakillarining yonma-yon yashashi emas, balki o‘zaro hurmat, konstruktiv muloqot, boshqa nuqtayi nazarlarni tushunish va umumiy insoniy qadriyatlar asosida hamkorlik qilish jarayoni sifatida talqin qilinmoqda. Umuman, tahlil qilingan adabiyotlar tasavvufning bag‘rikenglik va insonparvarlik masalalarini bir necha o‘zaro bog‘liq darajada o‘rganish imkonini beradi. Chittick va Nasr tasavvufning ma’naviy-falsafiy mohiyatini, Corbin uning metafizik va ruhiy tajriba jihatlarini, Trimingham tariqatlarning tarixiy-ijtimoiy rivojlanishini insonning ma’naviy-axloqiy kamoloti, muhabbat, ezgulik va insonparvarlik g‘oyalarini yoritib beradi. Biroq mazkur tadqiqotlarda tasavvufiy qadriyatlarning zamonaviy dinlararo muloqot, bag‘rikenglik madaniyati va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash imkoniyatlari kompleks tarzda yetarlicha tizimlashtirilmagan. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi aynan shu jihatni – tasavvufiy merosdagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni zamonaviy bag‘rikenglik va dinlararo muloqot konsepsiyalari bilan qiyosiy tahlil qilishni ochib berishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-falsafiy, qiyosiy-tahliliy, germenevtik va tizimli yondashuvlardan foydalanildi. Tasavvufning bag‘rikenglik va insonparvarlik haqidagi qarashlari Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Jaloliddin Rumiy va Alisher Navoiy ijodi asosida o‘rganildi.

Muhokama (Discussion). Tasavvufning asosiy maqsadlaridan biri insonning ichki dunyosini takomillashtirish va uni ma’naviy-axloqiy jihatdan yuksaltirishdir. Bu jarayon nafsni nazorat qilish, qalbni hasad, kibr, adovat va xudbinlik kabi illatlardan tozalash orqali amalga oshiriladi. Tasavvufiy nuqtayi nazardan qaralganda, insonning ruhiy kamoloti uning boshqa insonlarga bo‘lgan munosabatida ham namoyon bo‘ladi. Ya’ni, haqiqiy ma’naviy yetuklik faqat shaxsiy ibodat yoki ruhiy tajriba bilan chegaralanmaydi. U insonning jamiyatdagi xulq-atvori, boshqalarga bo‘lgan munosabati va ezgu amallari orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli tasavvufda “insonni sevish”, “insonni qadrlash”, “boshqalarga yaxshilik qilish” kabi tamoyillar ruhiy kamolotning muhim ko‘rsatkichlari sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv tasavvufning individual ruhiy tajribani ijtimoiy-axloqiy mas’uliyat bilan bog‘lashini ko‘rsatadi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida insonning ma’naviy poklanishi va axloqiy komilligi masalalari markaziy o‘rinlardan birini egallaydi [5]. Yassaviy uchun insonning kamoloti nafsni jilovlash, sabr, halollik, kamtarlik va mehr-oqibat bilan bog‘liq. Yassaviy ta’limotida insonning ruhiy kamoloti uning jamiyatdagi munosabatlaridan ajralmaydi. Insonning o‘zgalarga nisbatan mehribonligi, nochorlarga yordam berishi, adolatsizlikdan tiyilishi va halol yashashi uning ma’naviy yetukligining belgilaridir. Shu ma’noda Yassaviy merosidagi tasavvufiy qarashlar diniy bag‘rikenglikning bevosita siyosiy modeli emas, balki insonning ichki dunyosida bag‘rikenglikni yuzaga keltiruvchi ma’naviy-axloqiy asos sifatida talqin qilinishi mumkin.

Bahouddin Naqshband asos solgan Naqshbandiya tariqati insonning ruhiy kamolotini kundalik hayotdan ajratmasligi bilan ajralib turadi. Bahouddin Naqshband asos solgan Naqshbandiya tariqati insonning ruhiy kamolotini kundalik hayot va ijtimoiy faoliyatdan ajratmasligi bilan ajralib turadi. Mazkur tamoyil “Dil Yorda, dast ishda” hikmati orqali ifodalanib, insonning qalban ilohiy haqiqatga intilishi bilan birga, amaliy hayotda mehnat qilishi va jamiyatda faol bo‘lishini anglatadi [6;36-b.]. Bu jihat Naqshbandiya ta’limotining insonparvarlik mohiyatini ochishda muhimdir. Chunki ma’naviy kamolot faqat shaxsning ichki holati emas, balki uning boshqalarga munosabati va jamiyat oldidagi mas’uliyatida ham namoyon bo‘ladi.

Tasavvufiy qarashlarni dinlararo muloqot nuqtayi nazaridan tahlil qilganda, bir qator umumiy qadriyatlar ajralib chiqadi:

T/r	Tasavvufiy qadriyat	Dinlararo muloqotdagi ahamiyati
1.	Muhabbat	Insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmatni kuchaytiradi
2.	Bag‘rikenglik	Turli qarashlarni hurmat qilishga yordam beradi
3.	Sabr	Kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan hal etishga xizmat qiladi
4.	Kechirimlilik	Adovat va ziddiyatlarni yumshatadi
5.	Saxovat	Ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi
6.	Kamtarlik	Mutlaqlashtirish va murosasizlikning oldini oladi
7.	Insonparvarlik	Inson qadr-qimmatini umumiy qadriyat sifatida e’tirof etadi
8.	Ma’naviy kamolot	Shaxsning mas’uliyatli va axloqiy xulqini shakllantiradi

Natijalar (Results). Tadqiqot natijalari tasavvufiy bag‘rikenglikni faqat boshqa din vakillariga nisbatan murosali munosabat sifatida tushunish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Uning mazmuni ancha keng bo‘lib, avvalo, insonning o‘z nafsini nazorat qilishi, kibr va xudbinlikdan xalos bo‘lishi, boshqalarning qadr-qimmatini tan olishi va muloqotga ochiq bo‘lishini nazarda tutadi. Shu jihatdan, tasavvufning bag‘rikenglik konsepsiyasini “ichki tarbiya – axloqiy komillik – boshqani hurmat qilish – muloqot – ijtimoiy hamjihatlik”

ketma-ketligi asosida izohlash mumkin. Bunda muhim jihat shundaki, tasavvufiy merosni zamonaviy diniy yoki siyosiy tushunchalar bilan aynanlashtirib yubormaslik lozim. Tasavvuf tarixiy jihatdan turli maktab va tariqatlarni o‘z ichiga olgan murakkab hodisa bo‘lib, uning barcha vakillarining qarashlarini yagona "bag‘rikenglik modeli"ga keltirish metodologik jihatdan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Biroq Yassaviy, Rumiy, Naqshband va Navoiy merosida inson qadrini ulug‘lash, mehr-oqibat, ruhiy poklanish va ezgulik kabi qadriyatlarning kuchli ekanligi kuzatiladi.

Dinlararo muloqotning zamonaviy shakllari esa faqat ma’naviy qadriyatlarga emas, balki huquqiy tenglik, inson huquqlari, o‘zaro hurmat va konstruktiv kommunikatsiyaga ham tayanadi. Shu sababli tasavvufiy merosni bugungi sharoitda ma’naviy-axloqiy asos sifatida qo‘llash, uni zamonaviy huquqiy va institutsional mexanizmlar bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotda aniqlanishicha, tasavvufda bag‘rikenglikning asosiy ildizlari insonning ichki ma’naviy tarbiyasi va nafsni nazorat qilish g‘oyalariga borib taqaladi. Tasavvufiy insonparvarlik inson qadr-qimmatini tashqi mansublikdan ustun qo‘yish, mehr-oqibat va ezgulikni targ‘ib qilish orqali namoyon bo‘ladi. Jaloliddin Rumiy merosida muhabbat va o‘zaro tushunish turli diniy va madaniy guruhlar o‘rtasidagi muloqot uchun muhim ma’naviy asos sifatida namoyon bo‘ladi.

Naqshbandiya ta’limotida ruhiy kamolot kundalik hayot va ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘un holda talqin qilinadi. Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy merosida insonning axloqiy kamoloti, xalqparvarlik, mehr-oqibat va ezgulik g‘oyalari markaziy o‘rin egallaydi. Tasavvufiy qadriyatlarning zamonaviy ahamiyati ularni dinlararo muloqot, madaniyatlararo hamkorlik va yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi bilan bog‘liq holda qayta talqin qilish imkoniyatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa (Conclusion). Tasavvuf ta’limotidagi bag‘rikenglik va insonparvarlik g‘oyalari insonning ichki dunyosini takomillashtirish orqali jamiyatdagi o‘zaro munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan ma’naviy-axloqiy konsepsiyani shakllantiradi. Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Bahouddin Naqshband va Alisher Navoiy merosini qiyosiy o‘rganish, ularning qarashlarida muhabbat, sabr, saxovat, kechirimlilik, inson qadrini e’zozlash va ezgulik kabi umumiy qadriyatlar muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Tasavvufning tarixiy tajribasi zamonaviy dinlararo muloqotning to‘g‘ridan to‘g‘ri modeli sifatida emas, balki o‘zaro hurmat, insonparvarlik va ma’naviy mas’uliyatni shakllantiruvchi falsafiy-ma’rifiy manba sifatida ahamiyatlidir. Shu bois tasavvufiy merosni ilmiy va tanqidiy asosda o‘rganish yoshlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini boyitish, bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirish hamda jamiyatda tinchlik va hamjihatlik qadriyatlarini mustahkamlashga muhim ahamiyat kasb qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Chittick W.C. Sufism: A Beginner’s Guide. Oxford, Oneworld Publications, 2000, 224 p.

(2). Corbin H. Alone with the Alone: Creative Imagination in the Sufism of Ibn ‘Arabi. Princeton, New Jersey, Princeton University Press, 1998, 406 p.

(3). Trimingham J. Spencer. The Sufi Orders in Islam. Oxford, United Kingdom: Clarendon Press,1971, p.333.

(4). Rumi Jalal al-Din. The Masnavi, Book One. Translated with an Introduction and Notes by Jawid Mojaddedi. Oxford, United Kingdom: Oxford University Press, 2004, 271 p.

(5). Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Toshkent, "Movarounnahr", 2004, 83-bet.

(6). Sultanova R. From Shamanism to Sufism: Women, Islam and Culture in Central Asia. London: I.B. Tauris, 2011, 36-bet.

Bobomurodova Mehriniso Bobomurodovna (Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, Buxoro ilg‘or kasbiy mahorat texnikumining ishlab chiqarish ta’limi bo‘yicha direktor o‘rinbosari)

BAHMANYOR QARASHLARIDA INSON, AQL VA MA’NAVIY KAMOLOT MASALASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XI asr Sharq peripatetik falsafasi vakili Abulhasan Bahmanyorning inson, aql va ma’naviy kamolot haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbligi aql, nafs va bilimning inson kamoloti bilan bog‘liqligini yaxlit yoritish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotda tarixiy-falsafiy, qiyosiy va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. "Kitob at-tahsil" va zamonaviy tadqiqotlar asosida aqlning bilish, o‘zini anglash va kamolotdagi o‘rni aniqlandi. Maqolaning ilmiy-amaliy ahamiyati Bahmanyor g‘oyalarini yoshlarning tafakkur va ma’naviy tarbiyasi bilan bog‘liq holda talqin etishdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *Bahmanyor, Ibn Sino, inson, aql, nafs, ma’naviy kamolot, axloq, ma’rifat, Sharq peripatetizmi.*